SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 4
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

Tabiat va inson munosabatlarining tarixiy transformatsiyasi

Muratova Dildora Abdumanapovna

Sarbon universiteti, "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi professor v.b
Falsafa fanlari doktori (DSc)
muratovadildora959@gmail.com

Annotatsiya
Maqolada tabiat va inson munosabatlarining tarixiy evolyutsiyasi, uning bosqichma-bosqich transformatsiyasi hamda zamonaviy global ekologik inqirozning kelib chiqish sabablari ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Muallif ibtidoiy jamiyatdagi mifologik qarashlardan boshlab, qadimgi sivilizatsiyalar, o'rta asrlar diniy-falsafiy yondashuvlari, Uyg'onish davridagi ratsionalizm va Yangi davr sanoat inqilobi keltirib chiqargan texnogen munosabatlargacha bo'lgan murakkab yo'lni yoritib bergan. Shuningdek, hozirgi kunda insoniyat oldida turgan ekologik xavfsizlik muammolari, yadroviy mojarolarning biosferaga ta'siri hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar
Inson va tabiat, tarixiy transformatsiya, ekologik inqiroz, sivilizatsiya, texnogen munosabat, barqaror rivojlanish, global muammolar, yadro qishi.

Историческая трансформация взаимоотношений природы и человека

Аннотация
В статье с научно-философской точки зрения анализируются историческая эволюция взаимоотношений природы и человека, их поэтапная трансформация, а также причины возникновения современного глобального экологического кризиса. Автор освещает сложный путь от мифологических представлений первобытного общества, религиозно-философских подходов древних цивилизаций и средневековья до рационализма эпохи Возрождения и техногенного характера отношений периода промышленной революции Нового времени. Также обоснованы актуальные проблемы экологической безопасности, стоящие перед человечеством сегодня, влияние ядерных конфликтов на биосферу и необходимость внедрения принципов устойчивого развития.

Ключевые слова
Человек и природа, историческая трансформация, экологический кризис, цивилизация, техногенное отношение, устойчивое развитие, глобальные проблемы, ядерная зима.

Historical transformation of nature and human relations

Abstract
The article provides a scientific and philosophical analysis of the historical evolution of human-nature relationships, their gradual transformation, and the root causes of the contemporary global ecological crisis. The author highlights the complex journey from the mythological views of primitive society, the religious and philosophical approaches of ancient civilizations and the Middle Ages, to the rationalism of the Renaissance and the technogenic nature of relations brought about by the industrial revolution of the Modern era. Furthermore, the paper substantiates current environmental security challenges facing humanity today, the impact of nuclear conflicts on the biosphere, and the necessity of implementing sustainable development principles.

Keywords
Human and nature, historical transformation, ecological crisis, civilization, technogenic relationship, sustainable development, global issues, nuclear winter.

Kirish

Insoniyat tarixi tabiat va jamiyat munosabatlari evolyusiyasidan iborat bo‘lib, bu jarayon uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar tarixi bir necha ming yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davr mobaynida insoniyat tabiatga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirib, dastlabki sodda qarashlardan to murakkab ilmiy-falsafiy konsepsiyalargacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. Dastlab, tabiat inson uchun sirli va tushunarsiz kuch sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan uning qonuniyatlarini o‘rganish, tabiiy resurslardan foydalanish va uni boshqarish imkoniyatlari kengayib bordi.

Bu munosabatlarning tarixiy transformatsiyasi turli davrlarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. Har bir tarixiy davr o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, ilmiy-texnik salohiyati va madaniy xususiyatlariga ko‘ra tabiatga nisbatan muayyan munosabatni shakllantirgan. Masalan, ibtidoiy jamiyatda tabiat ilohiylashtirilgan bo‘lsa, qadimgi sivilizatsiyalar davrida unga nisbatan amaliy-foydalanish yondashuvi paydo bo‘ldi. O‘rta asrlarda diniy qarashlar ta’sirida tabiatga munosabat o‘zgardi, Uyg‘onish davrida esa ilmiy-ratsional qarashlar ustuvor bo‘la boshladi.

Asosiy qism

Hozirgi davrga kelib, tabiat va jamiyat munosabatlari yanada murakkablashdi va global ahamiyat kasb eta boshladi. Bugungi kunda bu munosabatlar nafaqat milliy yoki mintaqaviy, balki umumbashariy miqyosda ko‘rib chiqilmoqda. Texnologik inqilob, sanoatlashgan jamiyatning tabiatga ta’siri, ekologik muammolarning keskinlashuvi, tabiiy resurslarning cheklanganligi kabi masalalar insoniyat oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Shu bois, hozirgi kunda tabiat va jamiyat munosabatlarini oqilona tashkil etish, barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o‘z navbatida, tabiat va inson munosabatlarining yangi paradigmasini shakllantirish zaruratini keltirib chiqarishi tabiiy. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I Karimovning ta’biri bilan aytganda: «Dunyoda insonning biologik tur sifatida yashashiga bevosita xavf-xatar mavjud. Ya’ni yalpi yadro urushi xavfi, ancha kamaygan bo‘lsa ham ekologik tanglik xavfi tahlikali holatda saqlanib qolmoqda»[1]. Bunday qarash XX asr oxiri va XXI asr boshlarida inson-tabiat munosabatlarining inqirozli holatga kelganini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, modern davrning texnogenlik paradigmasi, tabiatni cheksiz resurs manbai deb hisoblash, ekologik tanglik holatini keltirib chiqardi va insoniyatning biologik mavjudligi uchun jiddiy tahdid tug‘dirdi.

Yuqoridagi fikrlarni professor S Mamashokirovning qarashlari ham tasdiqlaydi. Uning ta’kidlashicha, «Insoniyat uzoq va yaqin tarixida boshidan qancha ekologik falokat, kulfat, kasofat, inqirozni boshidan kechirgan bo‘lsa, insonning o‘z hayoti asosi – tabiiy atrof-muhitga, kelajak avlodlari taqdiriga loqaydligi, beparvoligi asosiy sabab bo‘lgan»[2].

Olimning bu qarashi inson-tabiat munosabatlarining tarixiy taraqqiyotidagi asosiy ziddiyatni yaqqol ochib beradi. Haqiqatan ham, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida har bir sivilizatsiyaning tanazzuli ko‘pincha ekologik omillar bilan bog‘liq bo‘lgan. Shumer sivilizatsiyasining tuproq sho‘rlanishi tufayli qulashi, Mayya sivilizatsiyasining o‘rmonlarni kesib tashlash natijasida yo‘qolishi, Rapa-Nui (Pasxa oroli)da tabiiy resurslarning noto‘g‘ri foydalanilishi tufayli ekologik kollaps yuz berishi

[1] Каримов И.А. Ватан маждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. –Т.: Ўзбекистон, 1996. 54-б.
[2] Мамашокиров С. Ваҳимами ёки ҳақиқат. Т.: «Иқтисод-молия» 2012. Б-28.

– bularning barchasi insonning tabiatga nisbatan loqaydligining tarixiy guvohlaridir. Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, ekologik muammolar yangi hodisa emas, balki insoniyatni doimiy ravishda ta’qib qilgan dolzarb masala sifatida kun tartibidi mavjud bo‘lgan.

Zamonaviy global ekologik inqiroz esa insonning tabiatga nisbatan beparvoligining eng yuqori cho‘qqisini ifodalaydi. Sanoat inqilobidan keyingi davrda insoniyatning tabiiy resurslarga bo‘lgan ehtiyoji eksponensial ravishda o‘sib, planetaning ko‘tarish qobiliyatidan oshib ketdi. Yillik 100 milliard tonna tabiiy resurslar iste’moli, 8 million tonna plastik chiqindilarning okeanga tashlanishi kabi raqamlar insonning tabiatga nisbatan beparvoligining miqdoriy ko‘rsatkichlaridir. Bunda eng ayanchlisi shundaki, bu jarayonlar kelajak avlodlarning taqdirini hisobga olmagan holda amalga oshirilmoqda.

Insonning o‘z hayoti asosi bo‘lgan tabiiy atrof-muhitga nisbatan loqaydligi hozirgi kunda ekzistensial paradoksga aylangan. Biologik tur sifatida inson tabiatning ajralmas qismi bo‘lsa-da, u o‘zini tabiatdan ustun va mustaqil hisoblash orqali o‘z mavjudligining poydevorini yo‘q qilmoqda. Iqlim o‘zgarishi, biologik turlarning yo‘qolishi, tuproq degradatsiyasi, suv resurslari kamayishi kabi global muammolar insoniyatning kelajak avlodlari taqdiriga beparvolligining bevosita natijasidir. Shu sababli, ekologik ongni shakllantirish va tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabat o‘rnatish hozirgi zamon insoniyatining eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Tabiat va inson munosabatlarining tarixiy evolyusiyasi antik davrdan boshlab postmodern davrga qadar keskin transformatsiyaga uchragan. Antik yunon falsafasida tabiat (fyuzis) va inson orasida garmonik munosabat tamoyili hukm surgan bo‘lsa, o‘rta asr xristian ta’limotida tabiat Xudo tomonidan insonga berilgan boylik sifatida qaralgan. Yangi zamon sanoat inqilobining boshlanishi bilan bu munosabatlar tubdan o‘zgardi - tabiat inson tomonidan ustunlik qilinadigan va foydalaniladigan ob’ektga aylandi. XIX-XX asrlarda texnik progressning jadallashuvi insonning tabiatdan alohida, hatto unga qarshi turuvchi mavjudot sifatida qaralishiga olib keldi.

A Chumakovning qayd etishicha, «Antik davrda tabiat va inson munosabatlari asosan mifologik va falsafiy qarashlar asosida shakllangan» [3] . Bu davrning dastlabki

[3] Чумаков А.Н. Глобализatsiя. Контуры целостного мира: монография. 3-е изд. Москва: Проспект, 2017. 456 с.

bosqichlarida tabiatga munosabat asosan mifologik tasavvurlarga asoslangan bo‘lib, tabiiy hodisalar turli xudolar faoliyati bilan bog‘liq deb tushuntirilgan. Masalan, qadimgi yunon mifologiyasida Zevs - momaqaldiroq va chaqmoq xudosi, Poseydon - dengiz xudosi, Demetra - hosildorlik ma’budasi sifatida tasvirlangan. Bu mifologik qarashlar orqali insonlar tabiat hodisalarini tushunishga va izohlashga harakat qilganlar.

Qadimgi yunon faylasuflari tabiatni ilohiylashtirish orqali uni o‘rganishga intilganlar. Bu davrda tabiat insonning ajralmas qismi sifatida talqin etilgan. Fales, Anaksimandr, Anaksimen kabi Milet maktabi vakillari tabiatning asosiy elementlarini aniqlashga harakat qilganlar. Masalan, Fales suvni, Anaksimen havoni, Geraklit olovni borliqning asosi deb hisoblagan. Pifagor va uning izdoshlari esa tabiatdagi matematik qonuniyatlarni ochishga intilganlar. Demokrit atomistik nazariyani ilgari surib, tabiatning moddiy asoslarini tushuntirishga harakat qilgan. Aflotun va Aristotel kabi buyuk faylasuflar esa tabiatni yaxlit tizim sifatida o‘rganib, uning falsafiy mohiyatini ochib berishga intilganlar.

Antik davr mutafakkirlari tabiatni yaxlit va uyg‘un tizim sifatida anglab, uning fundamental qonuniyatlarini tushunishga intilganlar. Ular tizimli kuzatish va mantiqiy tahlil orqali bugungi zamonaviy tabiatshunoslik uchun ham qimmatli bo‘lgan konseptual asoslarni yaratganlar. Aristotel o‘zining «Fizika», «Osmon haqida» va «Meteorologiya» asarlarida tabiiy hodisalarni turkumlash, ularning sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash va tizimli tushuntirish metodologiyasini rivojlantirgan. Empedoklning yer, suv, havo va olov kabi to‘rt asosiy unsur haqidagi ta’limoti moddiy dunyo tuzilishi haqidagi dastlabki ilmiy qarashlardan biri bo‘lib, keyinchalik kimyo fanining shakllanishiga turtki bergan. Teofrast «O‘simliklar tarixi» va «O‘simliklar sabablari haqida» asarlarida 500 dan ortiq o‘simlik turlarini tasvirlab, ularni tasniflash tizimini yaratgan va botanika fanining ilk tizimli asoslarini shakllantirgan. Arximedning gidrostatika qonuni, mexanikaga oid kashfiyotlari esa fizika fani rivojining muhim poydevori bo‘lgan. Antik davr tabiatshunosligi faqat nazariy ahamiyatga ega bo‘lib qolmay, unda shakllangan kuzatish, tasniflash, mantiqiy tahlil va eksperiment qilish usullari zamonaviy ilmiy metodologiyaning tarkibiy qismi sifatida hozirgacha ahamiyatini saqlab kelmoqda.

O‘rta asrlarga kelib tabiatga bo‘lgan qarashlarda diniy yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etdi, tabiat ilohiy yaratilish mahsuli sifatida qarala boshladi. Bu davr Yevropada

xristian dini, Sharqda esa islom dini ta’limotlari asosida tabiatga munosabat shakllangan. Diniy qarashlarga ko‘ra, tabiat Yaratgan tomonidan inson uchun yaratilgan ne’mat sifatida talqin etilgan. Bu davrda tabiatni o‘rganish va tadqiq etish asosan diniy ta’limotlar doirasida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ayrim mutafakkirlar tomonidan ilmiy yondashuvlar ham rivojlantirilgan. Yevropada Rodjer Bekon, Albert Buyuk kabi olimlar tabiatni tajriba va kuzatishlar orqali o‘rganish metodlarini taklif etganlar.

Sharq mutafakkirlari, xususan Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalar tabiatni ilmiy asosda o‘rganish metodologiyasini ishlab chiqqanlar. «Ibn Sino o‘zining «Tib qonunlari» asarida tabiiy dorivor o‘simliklarni tizimli ravishda tadqiq etgan, ularning xususiyatlarini va inson organizmiga ta’sirini o‘rgangan»[4]. U tabobat ilmini rivojlantirish orqali tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlikni asoslab bergan. Beruniy esa «Mineralogiya», «Geodeziya», «Farmakognoziya» kabi asarlarida tabiiy boyliklarni o‘rganish, yer yuzasini o‘lchash, osmon jismlarini kuzatish bo‘yicha ilmiy metodlarni ishlab chiqqan. U tabiat hodisalarini tushuntirishda tajriba va kuzatish metodlariga alohida e’tibor qaratgan. Shuningdek, Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Umar Xayyom kabi olimlar ham tabiatni o‘rganishga katta hissa qo‘shganlar.

Sharq allomalarining asarlarida tabiat qonuniyatlarini tadqiq etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish g‘oyalari ilgari surilgan. Ular tabiatni o‘rganishda kompleks yondashuvni qo‘llab, tabiiy fanlarning turli sohalarini rivojlantirganlar. Masalan, Ibn Sino tibbiyot bilan bir qatorda geologiya, mineralogiya, botanika sohalarida ham tadqiqotlar olib borgan. Beruniy esa astronomiya, geografiya, geologiya kabi fanlarni rivojlantirgan. Ularning asarlarida tabiiy resurslardan foydalanishning ilmiy asoslari, tabiatni muhofaza qilish zarurati, inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalari o‘z aksini topgan. Bu davrda yaratilgan ilmiy meros keyingi asrlarda tabiiy fanlarning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan va hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Uyg‘onish davriga kelib tabiatga nisbatan ratsional yondashuv shakllana boshladi. XIV-XVII asrlarni o‘z ichiga olgan bu davr insoniyat tafakkurida tub burilish yasadi. O‘rta asrlardagi sxolastik va diniy qarashlardan farqli o‘laroq, bu davrda tabiatni ilmiy

[4] Болтаев М.Н. Абу Али ибн Сина - великий мыслитель, ученый энциклопедист средневекового Востока. Казань: Мастер Лайн, 1999. 388 с.

asosda o‘rganishga intilish kuchaydi. Leonardo da Vinchi, Nikolay Kopernik, Galileo Galiley, Iogann Kepler kabi buyuk olimlar tabiatni o‘rganishda empirik tadqiqot usullarini qo‘llay boshladilar. Ular kuzatish, tajriba o‘tkazish va matematik hisob-kitoblar orqali tabiat qonuniyatlarini ochib berishga harakat qildilar. Masalan, Kopernik geliotsentrik nazariyani ilgari surib, Quyosh sistemasi tuzilishini to‘g‘ri tushuntirib berdi, Galiley esa mexanika qonunlarini kashf etdi.

Bu davrda tabiatni o‘rganish va undan foydalanish masalalari ilmiy asosda ko‘rib chiqila boshlandi. Bu davrda tabiatshunoslik fanlari – fizika, astronomiya, matematika, mexanika kabi sohalar jadal rivojlandi. Olimlar tabiat hodisalarini tushuntirishda matematik formulalar va fizik qonuniyatlarga tayana boshladilar. Frensis Bekon tabiatni o‘rganishning induktiv metodini ishlab chiqdi, bu esa tabiiy fanlar metodologiyasining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Rene Dekart esa o‘zining ratsionalistik falsafasi orqali tabiatni o‘rganishda aql va mantiqning ustuvorligini asoslab berdi. Bu davrda yaratilgan ilmiy asarlar va risolalarda tabiatni tizimli ravishda o‘rganish, uning qonuniyatlarini aniqlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan.

Tabiiy fanlar rivojlanishi natijasida tabiatni tadqiq etishning yangi usullari paydo bo‘ldi. Teleskop va mikroskopning ixtiro qilinishi tabiatni o‘rganishda yangi imkoniyatlar ochdi. Galiley teleskop yordamida osmon jismlarini kuzatib, astronomiya fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdi. Robert Guk va Antoni van Levenguk mikroskop yordamida mikroorganizmlarni kashf etdilar. Uilyam Garvey qon aylanish sistemasini tadqiq etib, fiziologiya fanini rivojlantirdi. Tabiatni o‘rganishning eksperimental metodlari takomillashdi, laboratoriyalar tashkil etildi, ilmiy jamiyatlar tuzildi. Bu davrda shakllangan ilmiy metodologiya keyinchalik klassik tabiiy fanlarning rivojlanishiga asos bo‘ldi va zamonaviy ilm-fanning shakllanishiga olib keldi.

Yangi davr - sanoat inqilobi davrida tabiatga texnogen munosabat shakllandi. XVIII-XIX asrlarda sodir bo‘lgan sanoat inqilobi natijasida tabiat va inson munosabatlarida tub burilish yuz berdi. Bug‘ mashinasining ixtiro qilinishi, yirik sanoat korxonalarining paydo bo‘lishi, temir yo‘l transportining rivojlanishi kabi omillar tabiatga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirdi. Bu davrda tabiat insonning xo‘jalik faoliyati uchun zarur bo‘lgan resurslar manbai sifatida qarala boshlandi. Jeyms Uatt, Tomas Nyukomen, Richard

Arkrayt kabi ixtirochilar tomonidan yaratilgan sanoat mashinalari tabiiy resurslardan foydalanish ko‘lamini keskin oshirdi.

Tabiiy resurslardan foydalanish keng ko‘lamda amalga oshirila boshlandi, bu esa dastlabki ekologik muammolarni keltirib chiqardi. Ko‘mir, temir rudasi, neft kabi foydali qazilmalarni qazib olish hajmi keskin oshdi. O‘rmonlarning kesilishi, yer osti boyliklarining jadal qazib olinishi, sanoat chiqindilarining ko‘payishi natijasida tabiiy muhitga salbiy ta’sir kuchaydi. Ayniqsa, yirik sanoat markazlarida havo ifloslanishi, suv havzalarining zaharlanishi, tuproq degradatsiyasi kabi muammolar paydo bo‘ldi. London, Manchester, Birmingem kabi sanoat shaharlarida ekologik vaziyat yomonlashdi. Charlz Dikkens, Fridrix Engels kabi mualliflar o‘z asarlarida sanoatlashgan shaharlardagi ekologik muammolarni tasvirlaganlar.

Aksariyat olimlar tabiiy muhitning izdan chiqishini sanoatlashishning yuqori darajasi sabab deb hisoblashadi. E Girusovga ko‘ra, «Sanoatlashgan jamiyatda tabiat inson faoliyatining ob’ektiga aylandi. Tabiat endi faqat o‘rganish va kuzatish ob’ekti emas, balki faol o‘zlashtirish va o‘zgartirish ob’ektiga aylandi»[5]. Sanoat korxonalari, temir yo‘llar, shaxtalar qurilishi natijasida tabiiy landshaftlar o‘zgardi. Shaharlarning kengayishi, qishloq xo‘jaligining mexanizatsiyalashuvi tabiiy muhitga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Tabiatni bo‘ysundirish va undan maksimal foyda olish g‘oyasi ustuvor bo‘ldi. Bu davrda shakllangan texnogen sivilizatsiya tabiatni cheksiz resurslar manbai sifatida qarashga asoslangan edi. Biroq, XIX asr oxirlariga kelib, bunday yondashuvning salbiy oqibatlari namoyon bo‘la boshladi va tabiatni muhofaza qilish zarurati tushunila boshlandi.

Yangi davrda (XX asrning birinchi yarmi) tabiatga nisbatan iste’molchilik munosabati avj oldi. Bu davr ikkinchi sanoat inqilobi bilan xarakterlanib, elektr energiyasi, ichki yonuv dvigateli, konveyer ishlab chiqarish usuli kabi yangi texnologiyalarning joriy etilishi tabiiy resurslardan foydalanish ko‘lamini yanada kengaytirdi. Genri Fordning konveyer tizimi, Tomas Edisonning elektr stansiyalari, neft sanoatining rivojlanishi kabi omillar tabiatga bo‘lgan bosimni kuchaytirdi. Ommaviy ishlab chiqarishning yo‘lga

[5] Гирусов Э.В. Основы социальной экологии. Москва: РУДН, 1998. 172 с.

qo‘yilishi natijasida xom ashyo va energiya resurslariga bo‘lgan talab keskin oshdi. Ayniqsa, avtomobil sanoatining rivojlanishi neft qazib olish hajmining ortishiga va atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar miqdorining ko‘payishiga olib keldi.

Xulosa

O‘tgan asr boshlariga kelib ekologik inqirozlar global tus ola boshladi. XX asrning birinchi yarmida sodir bo‘lgan ikki jahon urushi, qurol-yarog‘ ishlab chiqarishning kuchayishi, kimyo sanoatining rivojlanishi tabiiy muhitga jiddiy zarar yetkazdi. Urushlar natijasida katta hududlar vayron qilindi, o‘rmonlar yo‘q qilindi, tuproq va suv havzalari zaharlandi. Yadroviy qurollarning yaratilishi va sinovdan o‘tkazilishi esa yangi ekologik xavfni keltirib chiqardi. Xirosima va Nagasakiga atom bombalarining tashlanishi nafaqat insoniyatga, balki tabiiy muhitga ham og‘ir zarba bo‘ldi. Harbiy faoliyat tabiiy muvozanatni tubdan buzib, ekotizimlarning tiklanish qobiliyatini yo‘q qildi. Urushlar davomida zararli kimyoviy moddalarning keng qo‘llanilishi tuproq sifatini buzib, oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarish imkoniyatlarini chekladi. Bu davrda sanoat korxonalarining chiqindilari, kimyoviy o‘g‘itlar va pestitsidlarning keng qo‘llanilishi, neft mahsulotlarining to‘kilishi kabi omillar tufayli ekologik muammolar milliy chegaralardan chiqib, global tus ola boshladi.

A.Alimovga ko‘ra, «urushlarning ekologik vaziyatni izdan chiqaruvchi kuchini aniqlashga qaratilgan izlanishlarning maqsadi «global yadroviy mojaroning nazariy jihatdan mumkin bo‘lgan oqibatlarini aniqlash edi»[6]. Aynan shu ishlanmalarda «yadro qishi»[7], «yadro kechasi»[8] tushunchalari birinchi marta paydo bo‘ldi. Bu tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, yadro qurollarining ta’siri nafaqat bevosita qo‘llanilgan hududlarga, balki butun sayyoraning iqlim tizimiga ham katta zarar yetkazishi mumkin. Yadro portlashlari

[6] Алимов. А.А. Экологические последствия современного военного конфликта. Вестник Санкт-Петербургского университета. Сер. 6, 2005, вып. 2.С- 135-141.

[7] «Yadro qishi» (inglizchada «nuclear winter») – bu global miqyosdagi yadro urushi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan uzoq muddatli iqlim o‘zgarishi holatidir. Bu konsepsiyaga ko‘ra, ko‘plab yadro portlashlari natijasida vujudga keladigan keng miqyosdagi yong‘inlardan chiqadigan tutun va qurum atmosferaning yuqori qatlamlariga ko‘tarilib, quyosh nurlarining yer yuziga yetib kelishini bloklaydi. Natijada planetada harorat keskin pasayib, «sun’iy qish» holati yuzaga keladi. Bunday holat bir necha oy yoki yillar davom etishi mumkin.

[8] «Yadro kechasi» (inglizchada «nuclear night») – bu “yadro qishi”ning boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, yadro portlashlari tufayli atmosferaga ko‘tarilgan katta miqdordagi chang va tutun quyosh nurlarini to‘sib qo‘yishi natijasida yuzaga keladigan uzoq muddatli qorong‘ulik holatidir. Bu holatda kunduz vaqtida ham osmon tungi osmonga o‘xshash qorong‘u bo‘lib qoladi, ya’ni «kunduzgi tun» holati kuzatiladi.

natijasida atmosferaga ko‘tariluvchi radioaktiv moddalar va kul zarrachalari global iqlim o‘zgarishiga sabab bo‘lib, tabiiy resurslarning yo‘q bo‘lishiga olib kelishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Ko‘rinib turibdiki, bu hodisalarning aniq ilmiy asoslangan tavsifi o‘sha davrning ko‘plab siyosatchilariga ta’sir qilmay qolmagan, chunki o‘tgan asr oxiridagi yadroviy mojarolar global ekologik halokatga olib kelishi mumkinligi isbotlangan. Ekologik falokatning global xususiyati va uning kelajak avlodlar uchun yaratadigan xavf-xatarlari siyosiy liderlarni yadro qurollarini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash masalalariga jiddiy e’tibor qaratishga majbur qildi. Shu tariqa, urushlarning ekologik oqibatlari haqidagi ilmiy tadqiqotlar xalqaro siyosatda yangi yo‘nalishlarning shakllanishiga va ekologik xavfsizlik konsepsiyasining rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

1. Каримов И.А. Ватан маждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. –Т.: Ўзбекистон, 1996. 54-б.

2. Мамашокиров С. Ваҳимами ёки ҳақиқат. Т.: «Иқтисод-молия» 2012. Б-28.

3. Чумаков А.Н. Глобализatsiя. Контуры целостного мира: монография. 3-е изд. Москва: Проспект, 2017. 456 с.

4. Болтаев М.Н. Абу Али ибн Сина - великий мыслитель, ученый энциклопедист средневекового Востока. Казань: Мастер Лайн, 1999. 388 с.

5. Гирусов Э.В. Основы социальной экологии. Москва: РУДН, 1998. 172 с.

6. Алимов. А.А. Экологические последствия современного военного конфликта. Вестник Санкт-Петербургского университета. Сер. б, 2005, вып. 2.С- 135-141.